



XOMILADORLIKDA SKRINING TEKSHIRUVLARINING AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Ibodova.D.F <https://orcid.org/0009-0003-9173-4316>

E-mail: dilnoza_ibodova@bsmi.uz

Ibodova Dilnoza Fazliddin qizi

Buxoro davlat tibbiyot instituti “Yadro tibbiyoti va tibbiy radiologiya”

kafedrası assistenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada homiladorlik davrida o'tkaziladigan skrining tekshiruvlarining asosiy turlari va ularning samaradorligi bilan bir qatorda mavjud kamchiliklari, ularni yuzaga keltiruvchi omillar hamda yechim yo'llari tahlil qilinadi. Tibbiy protokollar asosida olib borilgan kuzatuvlar va ilmiy manbalarga tayangan holda tanqidiy baho berilgan. Ushbu maqolada xomiladorlik davrida amalga oshiriladigan skrining tekshiruvlarining ahamiyati, ularning maqsadi va erta tashxis qo'yishdagi roli yoritilgan. Skrining tekshiruvlari, ayniqsa, ultratovush diagnostikasi yordamida xomilaning rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni aniqlash imkonini beradi. Maqolada zamonaviy usullar, statistik ko'rsatkichlar va klinik misollar asosida mavzu chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: homiladorlik, skrining, ultratovush, biokimyoviy testlar, xatoliklar, noto'g'ri natijalar.

ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF SCREENING TESTS DURING PREGNANCY

Ibodova.D.F <https://orcid.org/0009-0003-9173-4316>

E-mail: dilnoza_ibodova@bsmi.uz

Ibodova Dilnoza Fazliddin qizi



*Assistant of the Department of "Nuclear Medicine and Medical Radiology"
of the Bukhara State Medical Institute*

Annotation

This article analyzes the main types of screening tests performed during pregnancy and their effectiveness, as well as their existing shortcomings, factors that cause them and ways to solve them. A critical assessment is given based on observations made on the basis of medical protocols and scientific sources. This article highlights the importance of screening tests performed during pregnancy, their purpose and role in early diagnosis. Screening tests, especially with the help of ultrasound diagnostics, allow you to identify possible defects in the development of the fetus. The article provides an in-depth analysis of the topic based on modern methods, statistical indicators and clinical examples.

Keywords: pregnancy, screening, ultrasound, biochemical tests, errors, incorrect results.

ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ СКРИНИНГОВЫХ ТЕСТОВ ВО ВРЕМЯ БЕРЕМЕННОСТИ

Ибодова Д.Ф. <https://orcid.org/0009-0003-9173-4316>

E-mail: dilnoza_ibodova@bsmi.uz

Ибодова Дилноза Фазлиддин кизи

Ассистент кафедры «Ядерной медицины и медицинской радиологии»

Бухарского государственного медицинского института

Аннотация

В данной статье анализируются основные виды скрининговых тестов, проводимых во время беременности, и их эффективность, а также имеющиеся у них недостатки, факторы, их вызывающие, и пути их решения.



Дается критическая оценка на основе наблюдений, сделанных на основе медицинских протоколов и научных источников. В данной статье подчеркивается важность скрининговых тестов, проводимых во время беременности, их цель и роль в ранней диагностике. Скрининговые тесты, особенно с помощью ультразвуковой диагностики, позволяют выявить возможные пороки развития плода. В статье представлен глубокий анализ темы на основе современных методов, статистических показателей и клинических примеров.

Ключевые слова: беременность, скрининг, УЗИ, биохимические тесты, ошибки, неверные результаты.

Kirish

Homiladorlik skriningi tug'ilajak bolada tug'ma nuqsonlar va xromosomal anomaliyalarni erta aniqlash maqsadida olib boriladigan tekshiruvlar majmuasidir. Bugungi kunda birinchi va ikkinchi trimestr skrininglari keng qo'llaniladi. Biroq, bu tekshiruvlarning ham ayrim cheklovlari va kamchiliklari mavjud bo'lib, ular noto'g'ri tashxis qo'yilishiga yoki ortiqcha tashvishga olib kelishi mumkin. Xomiladorlik davrida ona va bola salomatligini ta'minlash maqsadida bir qator skrining tekshiruvlar o'tkaziladi. Bu tekshiruvlar homilaning genetik, anatomik va funksional holatini baholashda muhim o'rin tutadi. Erta bosqichda aniqlangan patologiyalar davolash yoki homiladorlik strategiyasini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Asosiy qism

Skrining tekshiruvlar odatda homiladorlikning 11–14, 18–21 va 30–34 xaftalarida o'tkaziladi. Ular orasida ultratovush tekshiruvlari (UTT) eng muhim hisoblanadi. UTT yordamida homilaning anatomik tuzilmasi, yurak urishi,



organlar rivojlanishi va suv miqdori baholanadi. Shu bilan birga, qon sinovlari, serologik testlar ham qo‘shimcha skrining vositalaridandir.

1. Skrining tekshiruvlarining qisqacha tavsifi

- Birinchi trimestr skriningi (11–13 xaftalar): UTT (ultratovush) orqali nukhal o‘lchov, burun suyagi, va biokimyoviy ko‘rsatkichlar (PAPP-A, β -hCG) tahlil qilinadi.
- Ikkinchi trimestr skriningi (15–20 xaftalar): AFP, estriol, hCG, inhibin A kabi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi.
- Uchinchi trimestrda esa asosiy e‘tibor homila rivojlanishi va anatomiya baholashga qaratiladi.

2. Skrining tekshiruvlarining kamchiliklari

- Soxta ijobiy yoki soxta salbiy natijalar: Ayrim hollarda test natijalari haqiqatga mos kelmasligi mumkin, bu esa homilador ayolga asossiz tashvish tug‘diradi yoki aksincha, real muammoni yashiradi.
- Tashxis qo‘yishda faqat taxminiy yondashuv: Skrining testlari diagnostik emas, balki taxminiy xavfni baholaydi. Ko‘p holatlarda keyingi invaziv tekshiruvlarga ehtiyoj tug‘iladi (masalan, amniotsentez).
- Malakali mutaxassisga bog‘liqlik: UTT natijalari operatorga bog‘liq bo‘lib, tajribasiz mutaxassis noto‘g‘ri o‘lchovlar orqali noto‘g‘ri xulosa berishi mumkin.
- Iqtisodiy va psixologik bosim: Tekshiruvlar ba’zi hududlarda to‘liq amalga oshirilmaydi yoki qimmatga tushadi. Yana bir muhim jihat — natijalarning salbiy bo‘lishi onada psixologik stress tug‘diradi.
- Yoshga bog‘liq cheklovlar: Ayrim testlar faqat 35 yoshdan oshgan ayollarda samarali hisoblanadi, yoshroq homiladorlarda xatolik ehtimoli yuqori bo‘lishi mumkin.



3. Kamchiliklarni kamaytirish yo‘llari

- Milliy skrining protokollarini takomillashtirish
- Tibbiy xodimlarni muntazam tayyorlash va malakasini oshirish
- Tekshiruv natijalarini faqat kompleks baholash orqali xulosa chiqarish
- Yangi texnologiyalar, masalan, NIPT (Non-Invasive Prenatal Testing) kabi zamonaviy usullardan foydalanish

Xulosa

Homiladorlikda skrining tekshiruvlari erta tashxis qo‘yish va og‘ir nuqsonlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ular mutlaqo ishonchli tashxis usuli emasligi sababli, natijalarga ehtiyotkorlik bilan yondashish va zarur hollarda chuqurlashtirilgan tekshiruvlar bilan to‘ldirish lozim. Kelajakda texnologik yutuqlar va milliy sog‘liqni saqlash tizimining kuchayishi bu kamchiliklarni kamaytirishi mumkin. Skrining tekshiruvlari xomiladorlik davrida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash va ularning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ultratovush diagnostikasi esa bu jarayonda asosiy o‘rin egallaydi. Shu sababli, har bir homilador ayol belgilangan muddatlarda to‘liq skrining tekshiruvlardan o‘tishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nicolaides K.H. First trimester screening for chromosomal abnormalities. Prenat Diagn. 2011.
2. ACOG Practice Bulletin No. 226: Screening for fetal chromosomal abnormalities. Obstet Gynecol. 2020.
3. Sayfullayeva D.T., "Prenatal diagnostika asoslari", Toshkent tibbiyot nashriyoti, 2022.
4. WHO Guidelines on Antenatal Care, 2020.



5. Tursunova S.R., “Homiladorlik davrida perinatal skrininglar samaradorligi”, O‘zMEJ, 2023.
6. WHO. Screening programmes: a short guide. WHO Regional Office for Europe; 2020.
7. Nicolaides KH. First trimester screening for chromosomal abnormalities. Semin Perinatol. 2005.
8. Salim R., et al. The role of ultrasound in prenatal screening. Ultrasound Obstet Gynecol. 2017.
9. ACOG Committee Opinion No. 700: Methods for First-Trimester Screening. Obstet Gynecol. 2017.
10. James D. et al. High-Risk Pregnancy: Management Options. Elsevier Health Sciences; 2017.
11. Uzbek Respublikasi SSV buyrug‘i №198, 2023-yil.
12. Ismoilova N.R., 'Prenatal diagnostikaning dolzarb masalalari', TashMI, 2022.
13. Karimova G.X. 'Xomiladorlikni monitoring qilishda UTTning o‘rni', 2021.
14. Rizaev R.R. va boshqalar. 'Akusherlik va ginekologiya', Toshkent, 2018.
15. FIGO. Prenatal screening recommendations. Int J Gynaecol Obstet. 2018.